**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

| | |
|---|---|
| BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI 1930 | ***«Tasdiqlayman»*** <br> **BuxDU rektori** <br> **________O.X.Xamidov** <br> **«28» avgust 2024-yil** |

Ro‘yxatga olindi №____________
2024-yil “28” avgust

# O‘ZBEK ONOMASTIKASI

## O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 – Санъат ва гуманитар фанлар
**Ta’lim sohasi:** 230 000 - Tillar
**Ta’lim yo‘nalishi:** 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

Buxoro – 2024

| Fan/modul kodi O‘O1310 | | O‘quv yili 2024-2025 | Semestr 3 | ECTS - Kreditlar 4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta’lim tili O‘zbek | | Haftadagi dars soatlari 6 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | O‘zbek onomastikasi | | 60 | 60 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni.**

Mazkur mutaxassislik bo‘yicha ta’lim oluvchi talabalar kelgusida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishi va, asosan, o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim tizimida faoliyat olib borishini nazarda tutib, atoqli otlar, nomshunoslik, onomastika, toponimika, antroponimika, gidronimika masalalarini chuqur o‘rganishlari lozim. Onomastikaning ilmiy va amaliy jihatlarini egallash yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash zaruriyatini belgilaydi.

**Fanning maqsadi.** Mustaqillikka erishilgach, tariximizning ajralmas qismi sanalgan nomlar (joy nomlari, kishi nomlari va b.)ni o‘rganish, ularni madaniy meros sifatida asrash, kelajak avlodga yetqazish dolzabr bo‘ldi. Bu fanning asosiy maqsadi talabalar dunyoqarashini yanada kengaytirish, tafakkur doirasini mustahkamlash, mustaqil fikrlash darajasini orttirish, onomastikaning dolzarb muammolarini chuqur o‘rgatish, uning nazariy va amaliy masalalari bilan yaqindan tanishtirishdir.

**Fanning vazifasi** sifatida talabalarga atoqli otlar, nomshunoslik, onomastika, toponimika, antroponimika, gidronimika haqida bilim berish hamda ushbu bilimlarni amalda qo‘llay olish malakasini shakllantirishdan iborat. Shunga ko‘ra mazkur kurs talabalarning umumlingvistik tayyorgarligi, bilim doirasini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish, yangi nazariy va metodologik materiallar bilan tanishtirish vazifasini qo‘yadi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**1-mavzu: “Onomastika” kursining maqsadi, predmeti va vazifalari**

Fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalar. Kursning boshqa fanlar bilan o‘zaro munosabati. “Onomastika”ning tilshunoslikka oid nazariy va amaliy masalalarni hal qilishdagi asosiy fan sifatidagi ahamiyati haqida.

**2-mavzu: Onomastika – atoqli otlarni o‘rganuvchi soha**

Nom, ismning jamiyatdagi o‘rni, til va jamiyat o‘rtasidagi munosabat, nomning tafakkur bilan munosabati, nom va til birliklari, ularning o‘zaro munosabati. Onomastik birliklarning mazmun mohiyati. Onomastikaga oid tushunchalarni ifodalovchi faol terminlarning mazmun mohiyati.

**3-mavzu: Onomastikaning umumiy masalalari**

Onomastik birliklarning til lug‘at tizimidagi o‘rni. Atoqli va turdosh otlar orasidagi ma’noviy munosabatlar. Toponimikaning tarix, arxeologiya, dialektologiya bilan munosabati.



**4-mavzu: Onomastik terminologiya**

Termin va so‘z. Terminning o‘ziga xos xususiyatlari. Atoqli va turdosh ot. Onomastika sohasiga oid terminlar. Onomastik terminologiyaning o‘ziga xosligi.

**5-mavzu: Toponim – joy nomlari**

Toponimiya – joy nomlarini o‘rganadigan fan. Toponimlarning o‘rganilish tarixi. Toponimik manbalar, umumiy va xususiy toponimika.

**6-mavzu: Toponimika fanining qismlari**

Oykonimiya (turar joy nomlari), oronimika (tog‘ nomlari), gidronimika (suv nomlari), urbonimika (shahar nomlari) haqida ma’lumot. Bular haqida o‘zbek tilshunosligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga obzor. Toponimik formantlar, tiplar va modellar haqida tushuncha.

**7-mavzu: Buxoro toponimikasi**

Buxoro toponimlari, ularning tumanlar kesimidagi tahlili. Buxoroning tarixiy toponimiyasi. Buxoro toponimiyasi tarixiy manbalarda. Buxoroning zamonaviy toponimiyasi.

**8-mavzu: Oykonim – aholi yashash maskanlari nomi**

Oykonimlar – toponimlarning bir turi sifatifa. Oykonimlarning paydo bo‘lishi. Oykonimlarning o‘ziga xosligi. Oykonimlarning tarkibiy qismlari.

**9-mavzu: Gidronimika**

Gidronimlarning tuzilishi, yasalishi va etimologiyasi haqida ma’lumot. O‘z va o‘zlashma qatlam gidronimlari. Neogidronimlar. Gidronimlarga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar tahlili. O‘zbekiston hududidagi ayrim gidronimlarga sharhlar. Gidronimik indikatorlar (daryo, ob, jon, shon, hovuz).

**10-mavzu: Oronimlar - toponimning bir turi sifatida**

Oronimikaning yer yuzi tuzilishi nomlarini o‘rganishi. Oronimlarning ko‘rinishlari, etimologiyasi. Xalq rivoyatlari. Tuzilishi va yasalishiga ko‘ra turlari haqida ma’lumot. Ularning o‘zbek tilshunosligida tadqiqi haqida. Oronimik indikatorlar (tog‘, qoya, qir, cho‘l, jar).

**11-mavzu: Etnonim. Etnotoponim**

Etnonim nomlashning bir ko‘rinishi sifatida. Etnonimlarning ma’nosi. Etnotoponimlar (xalq, qabila, urug‘ va uning kichik tarmoqlari nomlari) haqida ma’lumot. Etnonimlarning toponimlarga o‘tishi.

**12-mavzu: Antrotoponimlar**

Kishi nomi, laqabi, familiyalarining toponimlarga ko‘chishi. Joylarning o‘simligi, hayvonot olami bilan bog‘liq tarzda yaratilgan toponimlar.

**13-mavzu: Antroponim – kishi ismi**

Antroponimika – insonlarning atoqli otlarini o‘rganuvchi onomastikaning bir qismi. Antroponimlarning o‘rganilish tarixi. Antropoleksemalarning ko‘rinishlari: ism, familiya, ota ismi, laqab, taxalluslarning o‘ziga xos xususiyatlari. Ismlar tarixi - xalq tarixi ekanligi.

### 14-mavzu: Udumlar va ismlar

Turli millatlarga xos ismlar va ularning qo‘yilish sabablari. Tabarruk nomlar. Olloh, Jabbor, Xoliq kabi nomlarga turli qo‘shimcha va so‘zlarning qo‘shilib ketish sabablari. Islom dini bilan bog‘liq qator nomlarning izohi.

### 15-mavzu: Antroponimlarda so‘zlararo tizimiy munosabatlarning ifodalanishi

Antroponim va so‘z munosabati. Antroponim va leksema. Antroponimlar tizimi, uning tarkibi, turlari. Antroponimlarning so‘zlararo munosabatda tutgan o‘rni.

## III. Amaliy, seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

### Amaliy mashg‘ulot mavzular:

1. Onomastik birliklarning til lug‘at tizimidagi o‘rni.
2. Toponimikaning tarix va geografiya bilan munosabati.
3. Toponimlarning o‘rganilish tarixi.
4. Buxoroning tarixiy toponimiyasi.
5. Shofirkon toponimiyasi.
6. Romitan va Peshko‘ toponimiyasi.
7. Jondor toponimiyasi.
8. Oykonimlar – toponimlarning bir turi sifatifa.
9. Gidronimlarning tuzilishi, yasalishi va etimologiya.
10. Oronimika, oronimik indikatorlar.
11. Etnonimlar, ularning ma’nosi, etnotoponimlar.
12. Antroponim – kishi ismi.
13. Ismlar tarixi - xalq tarixi ekanligi.
14. Antroponimlarda so‘zlararo tizimiy munosabatlarning ifodalanishi
15. Adabiy taxalluslar va ularning ma’nolari.

### Seminar mashg‘uloti mavzulari:

1. Atoqli va turdosh otlar orasidagi ma’noviy munosabatlar.
2. Toponimiya – joy nomlarini o‘rganadigan fan.
3. Toponimik manbalar, umumiy va xususiy toponimika.
4. G‘ijduvon toponimiyasi.
5. Vobkent toponimiyasi.
6. Buxoro tumani toponimiyasi.
7. Olot va Qorako‘l toponimiyasi.
8. Oykonimlarning paydo bo‘lishi.
9. Gidronimik indikatorlar.
10. Etnonimlar, ularning ma’nosi.
11. Antrotoponimlar.
12. Antroponimlarning o‘rganilish tarixi.
13. Udumlar va ismlar.
14. Ism, familiya, ota ismi, laqab.
15. Antroponimlar tizimi, uning tarkibi, turlari.



## IV. Mustaqil ta’limva mustaqil ishlar.

Mustaqil ta’limning bosh maqsadi magistratura talabalarining o‘quv fani asosida olgan nazariy bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish, ijodiy tafakkurni o‘stirish, o‘z ustida ishlash va mustaqil tahlil qilish malakasini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot olib borishga tayyorlashdan iborat.

### IV.1.Mustaqil ta’lim mavzulari ustida ishlash bo‘yicha tavsiyalar

Talabalar fan bo‘yicha o‘quv, o‘quv-usuliy, ilmiy adabiyotlarni chuqur o‘zlashtirib, internet saytlaridagi manbalardan o‘rinli foydalanib, mustaqil ta’lim topshiriqlari, shuningdek, amaliy va seminar mashg‘ulotlari mavzulariga doir vazifalarni bajarishlari lozim.

Mustaqil ishni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olib, quyidagi vazifalarni bajarish va mustaqil ta’lim shakllaridan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Darslik va o‘quv qo‘llanmalari bo‘yicha fan mavzularini o‘rganish.
2. Tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish.
3. Internet saytlaridan ma’lumotlarni tanlash va o‘zlashtirish.
4. Mustaqil ta’lim mavzulari bo‘yicha referat tayyorlash.
5. Amaliy va seminar mashg‘ulotlari uchun taqdimot tayyorlash.

### IV.2. Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Onomastik birlik tushunchasi.
2. Onomastik birlikning til lug‘at tizimidagi o‘rni.
3. Atoqli va turdosh otlar.
4. Atoqli otlarning turlari.
5. Oykonimiya.
6. Oronomika.
7. Gidronimika.
8. Urbanimika.
9. Nekronimlar.
10. Toponimikada o‘z va o‘zlashma qatlam.
11. Toponimlarning yasalishi.
12. Toponimik indikatorlar.
13. Toponimlarning turlari.
14. Etnonimika.
15. O‘zbek tilida antroponimlar.
16. O‘zbek ismlari.
17. Laqablar.
18. Taxalluslar.
19. Udumlar va ismlar.
20. Turli millatlarga xos ismlar va ularning qo‘yilish sabablari.

**3.** 

## V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- fan va uning nazariy masalalari; nutq, madaniyat, notiqlik, uslubiyat, mezon, me’yor to‘g‘risida aniq tasavvur va bilimga ega bo‘ladi;

| | |
|---|---|
| | • fanning nazariy asoslarini amaliyotga tatbiq etish va lingvistik masalalarni ilmiy tahlil qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi;<br>• o'quv fani yakunida nutq madaniyati va uslubiyat asoslariga oid tushunchaviy-terminologik apparat bilan ish yuritish hamda lingvistik tadqiqot olib borish malakasini egallaydi. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoaviy ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar.**<br>Fanga oid nazariy tayanch tushuncha va masalalarni to'liq o'zlashtirish, amaliy tahlil malakasiga ega bo'lish hamda tahlil natijalarini aniq, dalilli va to'g'ri aks ettira olish, lingvistik masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yuritish va mantiqiy izchil xulosalash, joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlariga doir vazifalarni – test yoki yozma ish topshiriqlarini bajarish lozim. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. Тошкент, 1991.<br>2. Qorayev S. Toponimika. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. –T.: 2006. – 318 b.<br>3. Kilichev B.E. Onomastika. O'quv qo'llanma. –Buxoro, Durdona, 2023. – 179 b.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>4. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент, 1995.<br>5. Ономастика Ср. Азии. Москва. 1987.<br>6.Суперанская А.В. Структура имена собственного. Москва, 1969.<br>7. To'rayev H. Buxoro toponimikasi. Darslik. –Buxoro, Durdona, 2021. – 273 b.<br>8.Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Тошкент, 2005.<br>9. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. Тошкент 1965.<br>**Elektron manbalar:**<br>10. www.literature.uz<br>11. www.genhis.filol.ru<br>12. https://bigenc.ru/linguistics/text/2689763<br>13. https://elib.buxdu.uz/ |
| 7. | Fanning o'quv dasturi BuxDU o'quv-uslubiy kengashining 2024-yil "___" avgustdagi ___-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8. | **Modul/fan uchun mas'ul:**<br>B.E.Kilichev – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc). |



| | |
|---|---|
| | |
| 9. | **Taqrizchilar**:<br>M.Q.Abuzalova – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc).<br>B.P.Zaripov – NavDPI o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. |